

TEST VARIANTI RAQAMI: **1938495****BIOLOGIYA**

Ushbu test varianti 30 ta test topshirig‘idan iborat. Uni bajarishga 1 soat vaqt belgilash tavsiya etiladi. Natijani bilish uchun javoblariningizni javoblar varaqasiga belgilab, rasmini **@dtmxizmatbot** orqali jo‘nating. Sizga omad tilaymiz!

TEST VARIANTI RAQAMINI JAVOBLAR VARAQASIGA TO‘G‘RI KO‘CHIRING!

1	9	3	8	4	9	5
2	1	1	1	1	1	1
2	2	2	2	2	2	2
3	3	3	3	3	3	3
4	4	4	4	4	4	4
5	5	5	5	5	5	5
6	6	6	6	6	6	6
7	7	7	7	7	7	7
8	8	8	8	8	8	8
9	9	9	9	9	9	9
0	0	0	0	0	0	0

1. Qaldirg‘ochning orqa tomoni ko‘kimir rangda bo‘lishi (*A*) qizg‘ish bo‘lishi (*a*) ustidan dominantlik qiladi. Lekin bu belgilarni genotipda *B* geni bo‘lmasa yuzaga chiqsa olmaydi, natijada qoramir rang paydo bo‘ladi. Digeterozigota qaldirg‘ochlar o‘zaro chatishitirilganda, olingan avlodlarning fenotipik nisbati to‘g‘ri berilgan javobni aniqlang.
 

A) 13:3    B) 9:3:3:1    C) 9:3:4    D) 9:7
  
2. Parpi (*a*), chirituvchi bakteriya (*b*), sariq ilon (*c*) uchun mos tushunchalar to‘g‘ri berilgan javobni aniqlang.
 

A) *a* - redutsent organizm; *b* - geterotrof organizm; *c* - konsument  
     B) *a* - produtsent organizm; *b* - redutsent organizm; *c* - konsument organizm  
     C) *a* - avtotrof organizm; *b* - produtsent organizm; *c* - konsument  
     D) *a* - geterotrof organizm; *b* - konsument organizm *c* - avtotrof organizm
  
3. Sog‘lom odamda epiteliy to‘qimasi uchun berilgan to‘g‘ri fikrni aniqlang.
 

A) teri epiteliy hujayrasi mitoz sikli metafazasida 44 ta autosoma xromosomasiga ega  
     B) trapetsiyasimon muskulning tashqi yuzasini qoplab turadi  
     C) ichak epiteliysi murtak varaqasining ektoderma qavatidan hosil bo‘ladi  
     D) son suyagini yuzasini qoplab turadi
  
4. Berilgan organizmlardan birinchi tartibli konsumentlar (birinchi darajali konsumentlar) to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.
 

1) sakkizyoq; 2) so‘na; 3) suluv ninachi; 4) sariq ilon; 5) karam kapalagi qurti; 6) kaptar; 7) jayron; 8) jirafa; 9) qirg‘iy; 10) zubr; 11) boyo‘g‘li; 12) bo‘ka; 13) bug‘u; 14) qutb meduzasi; 15) qum bo‘g‘ma iloni; 16) qora kalxat; 17) mita.

A) 1, 4, 9, 12, 15    B) 5, 6, 7, 8, 10  
     C) 3, 9, 11, 13, 16    D) 2, 6, 7, 14, 17
  
5. Evolutsiya natijasida organik olamda muhit sharoitiga ogohlantiruvchi rang (*a*), himoya rangi (*b*) orqali moslashgan organizmlar to‘g‘ri juftlangan javobni aniqlang.
 

1) gornostay yozda bir qishda boshqa rangda bo‘ladi; 2) kallima kapalagi qanotlari shakli, naqsh va tomirlari bargga o‘xshash bo‘ladi; 3) qovog‘ari tana rangi ko‘zga yaqqol tashlanadi; 4) xonqizi qo‘ng‘izi tana rangi bilan ko‘zga yaqqol tashlanadi; 5) kvaksha baqasining tanasi yashil rangda bo‘ladi.

A) *a* - 4; *b* - 1    B) *a* - 2; *b* - 4  
     C) *a* - 1; *b* - 4    D) *a* - 5; *b* - 2

- 6.** Evolutsiya dalillariga mos keladigan misollar qaysi javobda to‘g‘ri keltirilgan?  
 1) kitning dumg‘aza suyagi-rudiment organ;  
 2) sut emizuvchilar embrionida jabra yoriqlari bo‘ladi; 3) ko‘p hujayralilarda ontogenetik zigotadan boshlanadi; 4) qush va kapalakning qanotlari-analogik organlar; 5) umurtqalilar ontogenezida blastula davri bo‘ladi.
- A) embriologiya - 3, 4; paleontologiya - 1, 2  
 B) solishtirma anatomiya - 2, 4;  
 embriologiya - 3, 5  
 C) embriologiya - 2, 3; solishtirma anatomiya - 1, 4  
 D) molekular biologiya - 3, 5; solishtirma anatomiya - 1, 2
- 7.** To‘rt kamerali yurakka ega issiqxonli organizmlarni aniqlang.
- A) latcha, latimeriya, alligator  
 B) jayron, jirafa, gavial  
 C) qashqaldoq, qunduz, qulon  
 D) yelik, yaguar, timsoh
- 8.** Fenotipik o‘zgaruvchanlik berilgan javobni aniqlang.  
 1) kalta oyoqli qo‘ylarning paydo bo‘lishi;  
 2) bedaning suv yetarli joyda baland, suv kam joyda past bo‘yli bo‘lib o‘sishi; 3) poyaning uchi chilpingandan so‘ng yon novdalarning ko‘plab o‘sib chiqishi; 4) bug‘doyning 42 xromosomali turining paydo bo‘lishi.
- A) 1, 2    B) 1, 4    C) 3, 4    D) 2, 3
- 9.** Qoqshol qo‘zg‘atuvchisi uchun xos tuzilmalarni aniqlang.  
 1) ribosoma; 2) mitoxondriya; 3) donador endoplazmatik to‘r; 4) plazmatik membrana; 5) silliq endoplazmatik to‘r 6) DNKnинг halqa molekulasi
- A) 1, 4, 5    B) 1, 4, 6    C) 3, 5, 6    D) 2, 3, 5
- 10.** Issiqxonli organizmlar berilgan javobni aniqlang.
- A) musicha, zog‘cha, ko‘rshapalak  
 B) silovsin, gavial, kenguru  
 C) chittak, qilquyruq, to‘ti  
 D) ukki, koala, aureliya
- 11.** O‘simlik organlarida tayanch funksiyasini ta‘minlaydigan to‘qima hujayralarini aniqlang.  
 1) periderma hujayralari; 2) yo‘ldosh hujayralar; 3) lub tolalari; 4) traxeid hujayralari; 5) yog‘ochlik tolalari; 6) xlorenxima hujayralari; 7) skleroid hujayralari; 8) kollenxima hujayralari.
- A) 2, 3, 6    B) 5, 6, 8    C) 1, 4, 5    D) 3, 7, 8
- 12.** Nazariy jihatdan DNK molekulasining birinchi zanjirida nukleotidlari TAG ACG GAC TGG TCA GGT GAT TCG ketma-ketlikda joylashgan bo‘lib, shu qo‘sh zanjirdagi har bir nukleotid yig‘indisini aniqlang.
- A) A - 12, T - 10, C - 18, G - 8  
 B) A - 5, T - 6, C - 4, G - 9  
 C) A - 11, C - 13, T - 11, G - 13  
 D) T - 5, A - 6, C - 9, G - 4
- 13.** Quyidagi organizmlarga xos bo‘lgan tushunchalar to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni belgilang.  
 a) funariya; b) dala qirqbo‘g‘imi; c) sharq sauri;  
 d) sachratqi; e) zuhrasoch;  
 1) sporofill; 2) poya; 3) barg; 4) ildiz tizimi;  
 5) urug‘kurtak; 6) arxegoni; 7) murtak xalta;  
 8) chang donasi; 9) o‘tkazuvchi nay; 10) sorus.
- A) a - 2; b - 5; c - 3; d - 6; e - 10  
 B) a - 2; b - 7; c - 4; d - 5; e - 1  
 C) a - 2; b - 6; c - 8; d - 9; e - 4  
 D) a - 8; b - 3; c - 9; d - 7; e - 2
- 14.** Buyrak kalavasimon kanalchalarida sodir bo‘ladigan jarayonlar to‘g‘ri berilgan javobni aniqlang.
- A) birlamchi siydik hosil bo‘ladi; reabsorbsiya sodir bo‘ladi; suyuqlik kapillarlarga o‘tadi  
 B) reabsorbsiya sodir bo‘ladi; ikkilamchi siydik hosil bo‘ladi  
 C) reabsorbsiya sodir bo‘ladi; birlamchi siydik hosil bo‘ladi  
 D) qonning suyuq qismi filtrlanadi; birlamchi siydik hosil bo‘ladi
- 15.** Qirqulloqlar barglarining ostki tomonida yoki chetida joylashgan qo‘ng‘ir rangli bo‘rtma nima deb ataladi?
- A) arxegoni    B) gametofit    C) sporofill  
 D) sorus

**16. Nuqtalar o'rniga mos javobni tanlang.**

Ohu ... hayvon.

- A) *toq tuyoqli*
- B) *kavsh qaytaruvchi juft tuyoqli*
- C) *oshqozoni ikki bo'liali*
- D) *kavsh qaytarmaydigan juft tuyoqli*

**17. Odamlarda sepkillarning bo'lishi (*P*) sepkilsizlik (*p*) ustidan to'liq dominantlik qiladi. Qon guruuhlarini yuzaga chiqaruvchi genlar autosomada joylashgan bo'lib, mustaqil irsiylanadi ( $I^0I^0$  - birinchi,  $I^AI^A$  va  $I^AI^0$  - ikkinchi,  $I^BI^B$  va  $I^BI^0$  - uchinchi,  $I^AI^B$  - to'rtinchi qon guruhiga ega bo'ladi). IV qon guruhili erkak va II qon guruhili ayol (erkak va ayol digeterozigotali) oilasida nazariy jihatdan tug'ilishi mumkun bo'lgan farzandlardan necha foizining qon plazmasida agglutinin  $\beta$  bo'lib, sepkilsiz bo'ladi?**

A) 18,75    B) 25    C) 6,25    D) 12,5

**18. Sovuq qonli (a) va issiq qonli (b) hayvonlarni aniqlang.**

- A) a - *tasqara*; b - *ko'rshapalak*
- B) a - *baqachanoq*; b - *krevetka*
- C) a - *gavial*; b - *tilyapiya*
- D) a - *qizil chuvalchang*; b - *zog'cha*

**19. Kuydirgi kasalligining qo'zg'atuvchisiga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlang.**

- 1) eukariot organizm;
  - 2) prokariot organizm;
  - 3) lizosomaga ega;
  - 4) mitoz usulida ko'payadi;
  - 5) mitoxondriyaga ega;
  - 6) geterotrof
- A) 1, 4    B) 2, 5    C) 2, 6    D) 3, 5

**20. Jinsiy *X*-xromosomaga birikkan retsessiv gen kasalligini aniqlang.**

- A) *Klajnfelter sindromi*
- B) *Daun sindromi*
- C) *Shershevskiy-Terner sindromi*
- D) *gemofiliya*

**21. DNK fragmentining bir zanjiri 1050 ta nukleotiddan iborat bo'lib, DNK qo'sh zanjiridagi timin nukleotidlari 10%ni tashkil etadi. Fragmentdagi guanin va sitozin nukleotidlari orasidagi vodorod bog'lar sonini aniqlang.**

- A) 2520    B) 2250    C) 1260    D) 1680

**22. Energiya almashinuvi bosqichlari va ularda sodir bo'ladigan jarayonlar to'g'ri juftlangan javobni aniqlang.**

- 1) murakkab uglevodlarning parchalanishi;
  - 2) glukozaning parchalanishi;
  - 3) sut kislotaning CO<sub>2</sub> va H<sub>2</sub>O gacha parchalanishi;
  - 4) ATF sintezi;
  - 5) spirt va CO<sub>2</sub> ning hosil bo'lishi
- a) tayyorgarlik bosqichi; b) ikkinchi bosqich;  
c) uchinchi bosqich.

- A) a - 1, 4; b - 2; c - 4, 5
- B) a - 2; b - 1, 4; c - 3, 4
- C) a - 1; b - 2, 4; c - 3, 4
- D) a - 1, 2; b - 4; c - 3, 5

**23. Chuchuk suvda uchraydigan suvo't (a), prokariot organizm (b), virus (c) berilgan javobni aniqlang.**

- A) a - *xara*; b - *qoqshol qo'zg'atuvchisi*; c - *vertitsill*
- B) a - *batsidiya*; b - *o'lat qo'zg'atuvchisi*; c - *penitsill*
- C) a - *xlorella*; b - *kuydirgi qo'zg'atuvchisi*; c - *gerpes*
- D) a - *yapon laminariyasi*; b - *sil qo'zg'atuvchisi*; c - *batsidiya*

**24. Qaldirg'ochning qaysi xususiyatlari turning ekologik (a), morfologik (b) va fiziologik (c) mezonlarini ifodalaydi?**

- 1) tanasining orgasi ko'kimtir-qora;
- 2) ayvon peshtog'ida qurilgan uyada yashaydi;
- 3) urg'ochilar uyaga 4-6 ta tuxum qo'yadi;
- 4) qanotlari ingichka va uzun;
- 5) bolalarini hasharotlar bilan oziqlantiradi;
- 6) uchayotganda o'pka va havo pufaklari orqali nafas oladi.

- A) a - 4; b - 3; c - 1    B) a - 5; b - 1; c - 6
- C) a - 1; b - 4; c - 2    D) a - 3; b - 2; c - 5

**25. Mevalarning nomlari to'g'ri berilgan javobni aniqlang.**

- 1) Pskom piyozining qo'zoqchasi;
- 2) qo'ng'irboshning pistasi;
- 3) xrizantemaning ko'sakchasi;
- 4) oqquray dukkagi;
- 5) makkajo'xorining doni;
- 6) madaniy tokning rezavor mavasi;
- 7) qayrag'ochning qanotchali mevasi.

- A) 1, 3, 4    B) 2, 5, 6    C) 4, 5, 7    D) 3, 5, 6

**26. Nuqtalar o'rniga mos javobni tanlang.**

Dala qirqbo'g'imida tuxum hujayra ... (a), lososda spermatozoid ... (b) hosil bo'ladi.

- A) a - anteridiyda; b - tuxumdonda
- B) a - sorusda; b - tashqi muhitda
- C) a - sporofilla; b - 1ta urug'donda
- D) a - arxegoniyya; b - 2ta urug'donda

**27. Nuqtalar o'rniga mos javobni tanlang.**

Sayg'oqning muskul hujayrasida energiya almashinuvining tayyorgarlik bosqichida ... kuzatilmaydi.

- 1) glukozadan sut kislotasining hosil bo'lishi;
- 2) uglevodlar, oqsillarning fermentlar ishtirokida parchalanishi; 3) glikogendan glukozaning hosil bo'lishi; 4) bir molekula glukozaning parchalanishi va unda to'plangan 2800 kJ energiyaning ajralishi.

- A) 2, 3    B) 3, 4    C) 1, 4    D) 1, 2

**28. Odam organizmida neyrogumoral**

boshqarilishida boshqaruv tizimlari va ularning funksiyalari o'rtasidagi muvofiqlik to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

- a) qalqonsimon bez; b) gipofiz; c) simpatik nerv sistemasi; d) parasimpatik nerv sistemasi;
- 1) hazm bezlari faoliyatini kuchaytiradi;
- 2) hazm fermentlar ajralishini kuchaytiradi;
- 3) hazm bezlari faoliyatini susaytiradi; 4) me'da harakatini susaytiradi; 5) hazm fermentlar ajralishini susaytiradi; 6) ichak peristaltikasini kuchaytiradi; 7) ichak peristaltikasini susaytiradi; 8) me'da harakatini kuchaytiradi.

- A) a - 5; b - 2; c - 6; d - 7
- B) a - 2; b - 5; c - 8; d - 4
- C) a - 1; b - 3; c - 4; d - 6
- D) a - 3; b - 1; c - 7; d - 8

**29. Odamda murtak varaqasining ektodermasidan rivojlanuvchi tuzulmalarni aniqlang.**

- 1) uzunchoq miya; 2) ichak epiteliysi;
- 3) terining epidermis qavati; 4) o'mrov osti muskuli; 5) kolbachasimon va tayoqchasimon retseptorlar; 6) o'pka arteriyasi; 7) o'ng va chap o'pka; 8) jabra.

- A) 6, 7    B) 5, 8    C) 2, 4    D) 1, 3

**30. Baqlajon (a), o'sma (b), g'umay (c) o'simliklari haqidagi to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.**

- 1) gulkosachabarglari to'rtta; 2) popuk ildiz tizimiga ega; 3) gullari shingil to'pgulda joylashgan; 4) mevasi ko'sakcha; 5) barglari ildiz bo'g'zida va poyada joylashgan;
- 6) xarduma bilan bir sinfga mansub; 7) ituzum turkumiga mansub.

- A) a - 7; b - 3, 1; c - 2, 6
- B) a - 4; b - 6; c - 3, 5    C) a - 1, 6; b - 4; c - 6
- D) a - 1, 7; b - 5; c - 2, 4

**Test varianti "Test topshiriqlari to'plami 2019" asosida shakllantirilgan:**

1 – 40-bet 32	7 – 77-bet 54	13 – 70-bet 12	19 – 57-bet 8	25 – 29-bet 30
2 – 120-bet 41	8 – 51-bet 15	14 – 89-bet 22	20 – 38-bet 13	26 – 31-bet 14
3 – 83-bet 11	9 – 13-bet 21	15 – 52-bet 5	21 – 19-bet 1	27 – 18-bet 4
4 – 126-bet 15	10 – 70-bet 1	16 – 7-bet 8	22 – 25-bet 34	28 – 95-bet 12
5 – 106-bet 15	11 – 63-bet 10	17 – 44-bet 58	23 – 16-bet 19	29 – 34-bet 10
6 – 111-bet 18	12 – 11-bet 38	18 – 117-bet 21	24 – 100-bet 15	30 – 80-bet 4